

MAMLAKATIMIZ TARIXIY MAKONLARI, BUXORO ARKI IJTIMOIY-IQTISODIY, SIYOSIY  
TARIXI

Ergasheva Shaxista Abduragim qizi

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti  
“Muzey menejmenti va madaniy turizm” yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada nafaqat o‘zbek xalqi, balki qardosh xalqlar uchun ham tarixda alohida o‘ringa ega bo‘lgan Buxoro shahri hamda arki haqida qiziqarli faktlar va aniq bo‘lib o‘tgan voqealar haqida yaqindan tanishib chiqib yoritilib boriladi. Buxoro davlat me’moriy-badiiy muzeypo‘riqxonasi faoliyati va tashkiliy ishlari bilan yaqindan tanishib, o‘rganish masalalariga bag‘ishlanadi.

**Kalit so‘zlar:** Buxoro arki, muzeyp faoliyati, YUNESKO tashkiloti, ark mudofaa devori, mo‘g‘ul xoqoni Chingizxon, “Buxoro fojiasi”, “Go‘riyon” darvozasi, ilm-fan, savdo va hunarmandchilik, “Tangrining jamoli”, “Islom dinining gumbazi”, muzeypo‘riqxona.

**Аннотация:** В данной статье будут освещены интересные факты о городе и арке Бухары, занимающих особое место в истории не только узбекского народа, но и братских народов, и о произошедших событиях. Познакомьтесь с деятельностью и организационной работой Бухарского государственного архитектурно-художественного музея-заповедника и посвятите себя вопросам обучения.

**Ключевые слова:** Бухарская арка, музейная деятельность, организация ЮНЕСКО, арочная оборонительная стена, монгольский хан Чингисхан, «Бухарская трагедия», «Гориянские» ворота, наука, торговля и ремесла, «Божья красота», «Купол ислама», музей- бронировать.

**Abstract:** This article will highlight interesting facts about the city and arch of Bukhara, which occupy a special place in the history of not only the Uzbek people, but also the fraternal peoples, and the events that took place. Get acquainted with the activities and organizational work of the Bukhara State Architectural and Art Museum-Reserve and devote yourself to educational issues.

**Key words:** Bukhara Arch, museum activities, UNESCO organization, arched defensive wall, Mongol Khan Genghis Khan, “Bukhara tragedy”, “Goriyan” gate, science, trade and crafts, “God’s beauty”, “Dome of Islam”, museum - book.

Yurtimizning necha ming yillik tarixga ega qadimiy qadamjolarimizdan biri bo‘lgan Buxoro shahri o‘zgacha tarixiy ma’lumotlarga egadir. Qadimiy shahar mamlakatimizda joylashgan, go‘zal va beqiyos shaharlar: Samarqand, Xorazm kabi YUNESKO umumjahon ro‘yxatiga kiritilgan. Buxoro shahrining 1997-yilda 2500 yillik yubileyi yurtimizda keng nishonlangan. Buxoro arkining qurilish tarixi bo‘yicha ko‘p afsonalar ham mavjud.

Ark mudofaa devori yer sathidan 16-20 m baland qilib qurilgan, Buxoro arki umumiy maydoni 4 gektarni tashkil etadi. Butun Jahon II urushida arkka zarar yetib, 3 gektar tarixiy obyekt yo'q bo'lib ketgan, hozirgi kunda esa sayohatchilar Buxoro arkining 1 gektar maydonini tomosha qilish imkoniyati mavjud. Qal'a Buxoro shahrining eng qadimiy me'moriy va arxeologik yodgorligi hisoblanadi. Bu qal'a tepalikni tashkil etgan ko'p asrlik vayronagarchilik qatlamlariga ega shaharning eng qadimiy qismi hisoblanadi. Shayboniylar hukmronligi davrida, XVI asrda hozirgi ko'rinishiga keltirilgan. Buxoro arkining dastlabki qurilish vaqtı milloddan avvalgi I asrga to'g'ri keladi. Arablar istilosiga qadar arkda shahar hokimlari — buxorxudotlar yashab kelgan. Somoniylar davrida (IX—X asrlar) ark qayta qurilib, mudofaa devori va burjlar bilan mustahkamlangan. Qoraxoniylar davrida (XI—XII asrlar) va mo'g'ullar bosqinchiligi vaqtida (XIII asr) ya'ni 1220-yil ark bir necha bor vayron qilingan. Hujum vaqtida shahar aholisi shu arkdan panoh topib berkinishar edi. Chingizxon yurtimizga yurish qilganida Xorazmshohlar davlati faoliyat olib boryotgan edi. Xorazmshohning mudofaa rejasi puxta o'ylanmaganligi bois, qo'l ostidagi askarlar soni jiyatidan mo'g'ullardan ustun bo'lsada mag'lubiyatga yuz tutadi. Bunga sabab davlat ichidagi o'z boshimchaliklardir hamda ichki nizo, boshboshoqlik va fuqarolarning noroziligi kuchayib, mamlakat siyosiy hayoti izdan chiqgan edi. "Buxoro fojiasi" nomi ostida tarixda qolgan jang 1220-yil fevral oyida Chingizxon Buxoroga hujum qilishi bilan boshlandi. 16-fevralda Buxoro to'liq mo'g'ullar qo'liga o'tadi, shunga qaramasdan shahar ichida jang hali to'xtagani yo'q. Buxoro hali dushmanlar hujumiga qarshi turishga yetarlicha tayyor bo'imsa-da, ark qamali 12 kun davom etadi. Shahar vaxshiylarcha talon-taroj qilingan, behisob xazinalar, asriy qo'lyozma asarlar olib ketilgan, muqaddas asarlar esa gulxanda yoqilgan. Buxoro shahar ilm-marifat egalari esa mo'g'ul jangchilariga xizmatkor sifatida beriladi. Mo'g'ul xalqining xoqoni Chingizxonning buyrug'i bilan shahar yoqib yuboriladi. Xullas, ilm-fan o'chog'i, savdo va hunarmandchilik markazi bo'lgan boqiy Buxoro shahri o'z tarixi davomida qanchadan qancha janglarni, tarixiy voqealarini boshdan kechirgan. Butun tarix davomida shahar "Tangrining jamoli", "Islom dinining gumbazi", "Islom dinining quvvati" degan iboralar bilan ulug'langan.

Buxoroning 2500-yilligini nishonlash munosabati bilan ark ichkarisidagi taxt joylashgan hovli ta'mirlanib, o'z holiga keltirildi. Ark devorlari yangidan ta'mirlandi. Arkning "Go'riyon" darvozasi qayta tiklanib, boshqa obodonlashtirish ishlari olib borilgan. Yer sathidan 2,5-3 m chuqurlikda joylashgan gumbazimon yer osti yo'li borligi aniqlangan. Arkda Buxoro davlat me'moriy-badiiy muzey qo'riqxonasi joylashgan. Buxoro davlat me'moriy-badiiy muzey qo'riqxonasi — Buxoro shahridagi muzeyqo'riqxona; Buxoroning qadimgi tarixini, uning moddiy va ma'naviy boyliklarini, avloddan avlodga o'tib kelayotgan o'ziga xos an'analarini, urf-odatlarini saqlash, o'rganish va targ'ib qilish bilan shug'ullanuvchi muassasa. 1922-yilda Buxoro davlat muzeyi sifatida tashkil topgan. Keyinchalik turli nomlar bilan atalgan:

Buxoro viloyat o'lkashunoslik muzeyi (1940-1945; 1969-1983);

Buxoro tarixiy o'lkashunoslik muzey i (1945-1969);  
Buxoro tarixiy-me'moriy muzeyi (1983-1984);  
1985-yildan muzeyqo'rikxonasi;  
1988-yildan Buxoro davlat me'moriy-badiiy muzey qo'riqxonasi.

Muzeyqo'riqxona jamg'armasi 63 mingdan ortiq eksponatlari mavjud. Umumiy maydoni 8320 kv.m. Muzeyqo'riqxonaning 6 ta filiali bor: Viloyat o'lkashunoslik muzeyi (Arkda), xalq amaliy bezak san'ati muzeyi (Sitorai Mohi Xosada), Kamoliddin Behzod nomidagi san'at muzeyi (sobiq Azov banki binosida), Fayzulla Xo'jayev uymuzeyi (19-asrdagi tarixiy binoda), Abu Ali ibn Sino memorial muzeyi (Peshku tumanidagi Afshona qishlog'ida), Romitan o'lkashunoslik muzeyi (Romitan shahrida).

Numizmatika to'plamida yunon-baqtriya tangalari (miloddan avvalgi III-II asrlar), kushon tangalari (I-III asrlar), sosoniylar tangalari (V asr), buxorxudotlar tangalari (VII-VIII asrlar), somoniylar (IX-X asrlar), qoraxoniylar (XII asr), temuriylar (XIV-XV asrlar), shayboniylar (XVI-asr), ashtarkoniylar (XVII-asr), mang'itlar sulolasini davri (XVIII-XX asr boshi) ga oid oltin, kumush tangalar saqlanadi. Buxoro kashtalari, so'zanalari do'ppilar va zardo'zlik buyumlari, G'ijduvon kulolchiligi (X-XX asrlar), yog'och o'ymakorligi buyumlari (XIV-XX asrlar), XVI-XX asrlarga oid xitoy va yapon chinnilaridan iborat to'plamlar, noyob kitob va qo'lyozmalar o'rami, 1930-2000-yillarda ishlangan tasviriy san'at asarlari, o'lka tarixiga oid 100 mingdan ortiq eksponatlari saqlanadi. 1970-1980-yillarda Arkda qisman arxeologik tadqiqotlar olib borilgan. 1970-1974-yillarda O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi Yahyo G'ulomov boshchiligidagi tashkil etilgan maxsus arxeologik guruh tomonidan Arkda yirik statsionar qazishmalar olib borilgan. Qal'ada 120x100 m maydonda XVI-XX asr boshlariga oid ustki qatlamlar qazilgan.

Buxoro arkida taxtxona (marosimxona), salomxona, otxona, Rahimxon mehmonxonasi kabilar joylashgan. "Ark qalasi" (miloddan avvalgi IV-III asrlar – XX asr) eng qadimgi arxeologik, tarixiy va madaniy yodgorlik hisoblanadi. 1920-yilgacha qal'a Buxoro amirligining qishki saroyi vazifasini bajarib kelgan. Bugungi kunda qal'anining kirish qismi, XIX asrdan buyon saqlangan darvoza, XVIII asrda qurilgan Jome'masjidi, Qushbegi hovlesi (Buxoro amirligining bosh vaziri) – XIX asr, XVII asrda barpo etilgan taxtxona (marosimxona), salomxona va otxona saqlangan. Bugungi kunda qal'ada Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasi bosh idorasi joylashgan hamda o'lkashunoslik muzeyining ekspozitsiyasi taqdim etilgan.

Taxtxona XVI asrda qurilgan. Hovlining yuqori qismida hukmdor taxti turibdi. Taxt o'z davrida nurotalik mohir ustalar tomonida 1669-yilda marmardan barpo etilgan. Bu marosimxonada Buxoro hukmdorlarining taxtga o'tqazish marosimlari bo'lib o'tgan. Yerto'lada g'aznaxona ham bo'lgan, maydoni 30x30 m ni tashkil qiladi. G'aznaxonada Arkning zarbxonasida tayyorlangan tilla, kumush va mis tangalar saqlangan. Salomxonada Buxoro amiri bilan salomlashish marosimi bo'lib o'tadi. 1920-yil boshlarigacha salomxonaga taxtxona va qorixona orqali kirib borilgan. Amir huzuriga har kuni ertalab